

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900200>

BO‘LAJAK PEDAGOGLAR KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

K.X.Xummamatova.,
JDPU, o‘qituvchi,
xikmatilla2016@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar, malakaviy amalyot davrida hamda istiqboldagi kasbiy faoliyati jarayonida duch keladigan, bugungi kunda ta’lim tizimida dolzarb hisoblangan muammolar haqida fikr yuritilgan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ba’zi bir interfaol metodlardan foydalanish metodikasi keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** interfaol metodlar, kasbiy tayyorgarlik, “Zanjir” metodi, “To‘rt taraf” metodi, “3,4,5,6,7” metodi.*

KIRISH

Bugungi kunda talabalarni o‘z pedagogik faoliyatlarida ilg‘or tajribalar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini matematika fanlarini o‘qitish jarayonlarini loyihalashtirish, amalga oshirish, boshqarishda samarali joriy etish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish dolzarb masala hisoblanmoqda.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lagak o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi har doim pedagog olimlar diqqat e’tiborida bo‘gan. Shu jihatdan, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yanada ko‘tarishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [1]. Ushbu Qarorda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv

mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlanishi qayd etilgan. Shu sababli, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga talablar yanada oshmoqda. Bundan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biri-bu talabani maktab o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog'liq xilma-xil muammolarni hal qilishga tayyor mutaxassis qilib shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Malakaviy amaliyot- nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitida davom ettiriladigan tarkibiy qism [2].

Malakaviy amaliyot quyidagicha uch bosqichda tashkil etilishi pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan e'tirof etilgan: rejalashtirish; asosiy - amalga oshirish jarayoni; yakuniy, natijani maqsad bilan qiyoslab xulosa chiqarish va yangi ishlarni rejalashtirish.

Bo'lajak pedagoglarning malakaviy amaliyotini tashkil etish bo'yicha bir qancha olimlar tadqiqot olib borishgan. D.A.Sayfullayeva tadqiqotlarida texnologiya fani bo'yicha amaliyotchi-talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotiga qo'yiladigan talablar, amalga oshirish vazifalari, amaliyotni o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlari, amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar hamda amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi [3]. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida, ya'ni maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida malakaviy amaliyotning roli haqida M.Jabborova o'z tadqiqotlarida fikr yuritadi [4]. F.Nizayevaning ishlarida esa kompetensiyani shakllantirishdagi muhim omillardan biri malakaviy amaliyot ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, malakaviy amaliyot kasbiy kompetensiyani tarkib toptirish uchun ta'lim mazmunini integratsiyalab o'qitish imkonini berishi haqida so'z yuritadi [5].

Hozirgacha pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlab ko'p adabiyotlar nashr qilingan. Shunga qaramay mazkur masala bo'yicha ko'pgina hal etilishi lozim bo'lgan, o'z yechimini kutayotgan bir qancha ilmiy-nazariy, metodik va amaliy muammolar mavjud ekanligi ma'lum. Ta'limning kredit modul tizimi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tayyorlash sifatini oshirishda o'quv jarayonida interfaol ta'limni joriy etish muhim usullardan biri hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z

sohasining bilimdoni bo‘libgina qolmasdan, balki bilimga chanqoq o‘quvchilarga o‘z bilimini yetkazish bo‘yicha mutaxassis bo‘lishi talab qilinadi [6].

MUHOKAMA

Bugungi kun o‘qituvchisi o‘z faoliyatida zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim sanalmoqda. Chunki, xozirda fan-texnika va texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda o‘quvchilarni an’anaviy, eski uslubda darsga qiziqtirish juda qiyin. Aynan malakaviy amaliyot davrida bo‘lajak pedagoglarda o‘z faoliyatlarida zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

____Pedagogika oliy ta’lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalari bilan malakaviy amaliyot va ish faoliyati davomida duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash maqsadida olib borilgan so‘rovnomalarga ko‘ra talabalar duch kelayotgan quyidagi muammolarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

-xozirgi kunda fan, texnika va texnologiya jadallik bilan rivojlanishi xisobiga o‘quvchilarning darsga qiziqishi susayib ketganligi;

-darsda o‘quvchilarni diqqatini jalb qilish qiyinligi, o‘quvchilarda xotara susayib ketayotganligi;

-istiqbolda sinf raxbari sifatida ota-onalar bilan ishlash ko‘nikmasi yetishmasligi;

-darslarda zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalarini maqsadli qo‘llash ko‘nikmasining yetishmasligi.

Nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarimiz, balki barcha o‘qituvchilarimiz yuqoridagi barcha muammolarga duch kelishmoqda va bu muammolarga yechim topishga harakat qilishmoqda.

NATIJA VA TAHLILLAR


Quyida ushbu muammolarni hal qilishda samara bera oladigan yangi zamonaviy interfaol metodlardan bir-nechtasi bilan tanishamiz:

1.O‘quvchilarni darsga qiziqishini oshirishga yordam beradigan metod.

“3,4,5,6,7” metodi [7].

Metodning maqsadi: Bu metod o‘tilgan mavzuni takrorlab, qiziqarli tarzda mustahkamlashga yordam beradi. Kechagi darsda e’tibor qaratmagan ma’lumotlarni boshqa o‘quvchilarning javoblarini eshitib, takrorlab, mustahkamlab olishlari mumkin bo‘ladi.

Metodni o‘tkazish bosqichlari: O‘quvchilar bugungi darsda yoki kechagi darsda qo‘llanilgan uchta, to‘rtta, beshta, oltita, yettita harfdan iborat bo‘lgan so‘zlarni topib jadvalga yozish kerak bo‘ladi. (1-rasm)



1-rasm. 3,4,5,6,7 metodi

jadvali.

Bu metod orqali o‘quvchilarda:

- darsga, fanga qiziqishi ortadi;
- darsni takrorlab, mustahkamlab oladilar;
- mavzuga oid atamalarni tahlil qila olish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- ijodkorliklari rivojlanadi;
- so‘z boyligi oshishiga erishiladi.

2.Darsda o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish qiyinligi muammosini hal qilishga yordam beradigan metod.

“Zanjir” metodi [7]

Metodning maqsadi: Bu metoddan dars mazmun-maqсадiga ko‘ra turli ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin. Masalan, tanishuv, mavzuga oid so‘zlarni aniqlash va o‘zlashtirish, xorijiy til asosida so‘z boyligini oshirish, xotira charxlash kabi maqsadlarda foydalanish mumkin.

Metodni o‘tkazish bosqichlari: Metoddan tanishuv maqsadida foydalanilganda bir ishtirokchi o‘z ismini aytadi va ismining bosh harfiga birorta o‘zida mavjud bo‘lgan sifat aytishi kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng, ikkinchi ishtirokchi birinchi ishtirokchining ismini va undagi sifatni aytib, yana takrorlab, shundan so‘ng esa o‘zlarining ismi va o‘zlarining ismi bosh harfiga sifat aytishlari kerak bo‘ladi. Shu taribda qolgan ishtirokchilar jarayonni, ya’ni jumlar zanjirini davom ettiradilar.

Bu metod orqali o‘quvchilarni:


- diqqatni oshirishishga, ziyraklik va e’tiborli bo‘lishga undaydi;
- o‘quvchilarning xotiralarini muxtahkamlashga yordam beradi;
- assotsiativ fikrlashni kuchaytiradi;
- ishtirokchilar orasida do‘stona muhitni shakllantiradi.

3.Ota-onalar bilan ishlashga yordam beradigan metod.

“To‘rt taraf” metodi [7]

Metodning maqsadi: Bu metodning bu shakli “Men haqimda” deb nomlangan bo‘lib, bundan, asosan, ishtirokchilar bilan yaqindan tanishib olish, ular orasida jamoaviylik ruhini paydo qilish va ishtirokchilarda o‘z-o‘zini tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsad qilinadi.

Metodni o‘tkazish bosqichlari: Bu metod uchun ma’lum bir shakl, ya’ni maxsus chizma yaratilgan. (2-rasm)



2-rasm. “To‘rt taraf” metodi (o‘quvchilar uchun).

Tarqatmalar barchaga tarqatilgandan so‘ng, topshiriq sharti tushuntiriladi. Bunda ishtirokchilar tarqatma materiallarida keltirilgan “4 taraf” metodining “Men haqimda” shaklida berilgan savollarga yozma tarzda javob berishlari lozim. Masalan:

1-o‘quvchi.

F.I.Sh: Xo‘janazarova Mohinur Shuhratbek qizi.

3 ta ijobiy fazilatim: sabrli, kirishimli, saxiy.

Orzularim: talaba bo‘lish, ingliz tilidan sertifikat olish.

1 ta kamchiligim: dangasa.

Bu metodni o‘quvchilarda bajartirgandan keyin, xuddi shu metodni “Farzandim haqida” (3-rasm) deb nomlab ota-onalar bilan o‘tkazilgan majlisda o‘tkaziladi. Majlisda qatnashgan ota-onalar metodda berilgan savollarga javob yozib bo‘lishganidan so‘ng, ularga o‘z farzandlari bergan javoblarni o‘zlariniki bilan solishtirish uchun tarqatiladi.



3-rasm. “To‘rt taraf” metodi (ota-onalar uchun).

1-o'quvchining ota -onasining javoblari:

F.I.Sh: Xo'janazarova Mohinur Shuhratbek qizi.

3 ta ijobiy fazilati: kirishimli, mexribon, tirishqoq.

Orzulari: talaba bo'lish.

1 ta kamchiligi: erta uyg'onishga qiynaladi.

Bu metod orqali o'quvchilarda:

-anglash va yozish ko'nikmasi shakllanadi;

-jamoada o'zaro hurmat va ishonch paydo bo'ladi;

-bolalarda orzularini yozish orqali orzu qilish, o'z kamchiliklari va fazilatlarini yozish orqali esa o'zlarini tahlil qilish va baholashni o'rganishadi;

-ota-onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishga katta yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan 3,4,5,6,7, Zanjir hamda 4 taraf metodlardan darslarda foydalanilganda o'qituvchi quyidagi natijalarga erishadi:

- darsni samarali va qiziqarli tashkil etadi;
- o'quvchilarning ijodiy iqtidorini aniqlay oladi;
- mavzuni o'quvchilar xotirasida yanada yorqin, obrazli elab qolishiga erishadi;
- darsda ijodiy muhitni paydo qiladi;
- o'quvchilar bilan do'stona munosabatni o'rnatadi;
- o'quvchilarning xotiralari qay darajada rivojlanganligini aniqlab oladi;
- o'quvchilarning o'zlari haqida va ularning ota-onalarining farzandi haqidagi ma'lumotlarni o'zlaridan oladi, ya'ni ularning ruhiy holati, fikrlashi, dunyoqarashi, yutuqlari va kamchiliklari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- o'quvchilarga qanday yondashish kerakligi, ularning mavzuni o'zlashtirishda qanday usullardan foydalanish yanada samarali bo'lishi mumkinligi haqida tegishli hulosalar chiqarishiga yordam beradi.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarning malakaviy amaliyoti hamda istiqbolda kasbiy faoliyatlari davomida duch kelishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolarni bartaraf etishda nafaqat o'z fani bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi, balki bu egallagan bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289 – son Qarori. lex.uz

2. B.N.Rizayev H.M.Kobilova. Malaka amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. “KAMOLOT” nashriyoti Buxoro - 2023.

3. D.Sayfullayeva. Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. - T.: 2000y. A communicative approach to teaching students in english of their specialties. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2022.B.404-408

4. M.Jabborova. Bo‘lajak peadagoklarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli. Scientific Progress, 2022.

5. F.Nizayeva. Talabalarning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirish yo‘llari./ Journal of new century innovations. - Mart. 2023.

6. K.X.Xummamatova. Ma’ruza mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanish.//“Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023 y, 14 noyabr, Jizzax.

7. D.Xidoyatova. Samarali interaktiv metodlar 1.0., Metodik qo‘llanma., Toshkent., 2023